

O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

“Kiritdi”
Kamoliddin Behzod
nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti rektori

A. Sh. Mirzoraximov
“ ” 2024-y

“Kelishildi”
O‘zbekiston
Respublikasi
Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi

2024-y

“Tasdiqlayman”
O‘zbekiston Badiiy
akademiyasi

2024-y

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari**

- 60210400 Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto
- 60210400 Dizayn: reklama va amaliy grafika
- 60210400 Dizayn: interyer dizayn
- 60210400 Dizayn: libos va gazlamalar
(kunduzgi va sirtqi) ta‘lim yo‘nalishlari uchun

Toshkent – 2024-yil

Dastur Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti O'quv uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2024-yil "3" 06 dagi "11" sonli majlis bayoni

Tuzuvchilar:

- **U.M.Xadjayeva**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Libos dizayni kafedrası dotsenti
- **R.T.Norchayev**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Amaliy grafika va badiiy fotografiya kafedrası mudiri
- **N.R.Mannapova**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Dizayn kafedrası mudiri

Taqrizchilar:

- **T.Safiyev**
Toshkent arxitektura va qurilish universiteti dotsenti
- **F.Ataxanova**
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Libos dizayni kafedrası dotsenti

KIRISH

60210400-Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto, 60210400-Dizayn: reklama va amaliy grafika, 60210400-Dizayn: interyer dizayn, 60210400-Dizayn: libos va gazlamalar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezonlarida ushbu yo'nalishning kunduzgi va sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kirish bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar topshiriqlarini bajarish va ularni baholash mezonlari tartibini belgilaydi.

“Chizmatasvir”, “Kompozitsiya” fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu sinov dastur mezonlarining murakkabligiga qo'yiladigan talablar asosan ixtisoslashtirilgan san'at maktablari hamda maktab-internatlarida o'qitiladigan fanlar va dasturlarida belgilangan vazifalarni qamrab oladi.

Respublikamizda badiiy ta'lim sohasida islohotlarini yanada chuqurlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash borasida, ularning kasbiy xususiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, abituriyentlarda dizayn sohasi turlaridan kelib chiqib tasviriy san'atdagi kasbiy mahorat, amaliy ko'nikmalarning shakllanganlik va ijodiy faoliyatga moyillik darajasini aniqlashga qaratilgan.

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar.

60210400-Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto, 60210400-Dizayn: reklama va amaliy grafika, 60210400-Dizayn: interyer dizayn, 60210400-Dizayn: libos va gazlamalar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi va sirtqi ta'lim shakliga o'qishga kiruvchi abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarni “Chizmatasvir” va “Kompozitsiya” fanlaridan topshiradi.

“Chizmatasvir” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko'rsatmasidan namuna 1-ilovaga muvofiq, “Kompozitsiya” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko'rsatmasidan namuna 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

“Chizmatasvir” fanidan “Antik haykal bilan natyurmort” uslubiy fonda qo'yiladi. Abituriyent bunda buyumlarning plastikasini chuqur tahlil qilinishi, natyurmortni joylashtirish jarayonida atrof – muhit inobatga olinishi, predmetlar proporsiyasi, katta va kichik hajm ko'rinishlariga ahamiyat berilishi, ijodiy ishni bajarishda e'tibor bilan nozik did asosida to'liq tugallangan holatga yetkazishi talab qilinadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda “**Chizmatasvir**” fanidan amaliy ishni bajarish uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
1.	Chizmatasvir fani bo'yicha amaliy ish	Jami 63 ball
	Natyurmortning kompozitsion joylashuvi	7 ball
	Proporsiyalarni to'g'ri topilishi	7 ball

Rakurs holatining topilish darajasi	6 ball
Katta va kichik shakllarning to'g'ri joylashganligi	6 ball
Yorug' va soyani ishlanishidagi mahorat	6 ball
Yuzaga to'g'ri joylashtirish	6 ball
Antik haykalning xarakteri topilganligi	6 ball
Antik haykalini atrof muhit bilan bog'langanligi	6 ball
Chizmatasvirda ketma-ketlikning to'g'ri bajarilishi	6 ball
Chizmatasvirning tugallanish darajasi	7 ball

“Kompozitsiya” fanidan abituriyent berilgan mavzu bo'yicha topshiriqni moybo'yoq, akvarel, guash, tempra, akrillardan birida ishlashni erkin tanlaydi. Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni, mohiyati mutaxassislikka xosligi, kompozitsiya yechimini mavzu asosida topilganligi, badiiy va g'oyaviy ifodada chizmatasvir va ranglar vositasidan foydalanish darajasi, shakl va plastik yechimini topilganligi, kompozitsion vazifasidagi asar chuqurligining perspektiv yechimi, kompozitsiya markazining ifodali topilganligi, mavzuning mazmuni va g'oyasini ochib berishda koloritdan foydalanilishi, kompozitsiyada mazmun, g'oya – fikrning yoritilishi va tugallanish darajasi kabi masalalarini yoritib berish talab etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda “**Kompozitsiya**” fanidan berilgan mavzu uchun **160 daqiqa** vaqt ajratiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
60210400-Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto ta'lim yo'nalishi bo'yicha		
	Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish	Jami 93 ball
	Berilgan mavzu kompozitsiyasini qog'oz tekisligiga to'g'ri joylashtirilganligi	10 ball
	Kompozitsion xarakterining ochib berilganligi	10 ball
	Badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanilganligi	9 ball
1.	Asarning kompozitsion g'oyaviy mazmuni	9 ball
	Kompozitsiyaning mavzu jihatidan original topilganligi	9 ball
	Kompozitsiyani perspektivada to'g'ri topilganligi	9 ball
	Tasvirning dizayn mutaxassisligiga mosligi	9 ball
	Kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi	9 ball
	Mavzuning mazmuni, ma'nosi hamda ranglar uyg'unligi	9 ball
	Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	10 ball

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
60210400-Dizayn: reklama va amaliy grafika ta'lim yo'nalishi bo'yicha		
	Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish	Jami 93 ball
1.	Berilgan mavzu kompozitsiyasi qog'oz tekisligiga to'g'ri joylashtirilganligi	10 ball
	Kompozitsiyaning mavzu jihatidan original topilganligi	10 ball
	Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni va mohiyatining mutaxassislikka xosligi	9 ball
	Asarning kompozitsion g'oyaviy mazmuni	9 ball
	Badiiy va g'oyaviy ifodada ranglardan to'g'ri foydalanilganligi	9 ball
	Kompozitsiyani perspektivada to'g'ri topilganligi	9 ball
	Tasvirning dizayn mutaxassisligiga mosligi	9 ball
	Kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi	9 ball
	Mavzuning mazmuni, ma'nosi hamda ranglar uyg'unligi	9 ball
	Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	10 ball

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
60210400-Dizayn: interyer dizayn ta'lim yo'nalishi bo'yicha		
	Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish	Jami 93 ball
1.	Bajarilgan ishning mavzuga mosligi	10 ball
	Kompozitsiyaning mavzu jihatidan original topilganligi	10 ball
	Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni va mohiyatining mutaxassislikka xosligi	9 ball
	Bajarilgan ishning badiiy obrazi shakllantirilganligi	9 ball
	Bajarilgan ishda kompozitsion qonun qoidalarga amal qilinganligi	9 ball
	Kompozitsiyani perspektivada to'g'ri topilganligi	9 ball
	Badiiy va g'oyaviy ifodada rang yechimlarining to'g'ri topilganligi	9 ball
	Kompozitsiya markazining to'g'ri topilganligi	9 ball
	Kompozitsiyani tasvirlash mahorati (grafikasi)	9 ball
	Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	10 ball

T/r	Imtihon topshiriqlari va baholash mezonlari	Ball
60210400-Dizayn: libos va gazlamalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha		
1.	Kompozitsiya fani bo'yicha amaliy ish	Jami

	93 ball
Bajarilgan ishning mavzuga mosligi	10 ball
Kompozitsiyaning mavzu jihatidan original topilganligi	10 ball
Kompozitsiya g'oyasi, mazmuni va mohiyatining mutaxassislikka xosligi	9 ball
Bajarilgan ishning badiiy obrazi shakllantirilganligi	9 ball
Kompozitsiyani perspektivada to'g'ri topilganligi	9 ball
Bajarilgan ishda kompozitsion qonun qoidalarga amal qilinganligi	9 ball
Odam gavdasining tasvirlanishida proporsiyalarga rioya qilinganligi	9 ball
Badiiy va g'oyaviy ifodada rang yechimlarining to'g'ri topilganligi	9 ball
Kompozitsiyani tasvirlash mahorati (grafikasi)	9 ball
Ishlanish mahorati va uning tugallanish darajasi	10 ball

II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkazish tartibi

60210400-Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto, 60210400-Dizayn: reklama va amaliy grafika, 60210400-Dizayn: interyer dizayn, 60210400-Dizayn: libos va gazlamalar ta'lim yo'nalishlarining kunduzgi va sirtqi ta'lim shakliga hujjat topshirgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunlarda ajratilgan vaqt davomida Chizmatasvir fanidan qo'yilgan uslubiy fondagi topshiriqni, Kompozitsiya fanidan berilgan mavzu asosidagi vazifani bajaradi.

Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlar kesimida kasbiy (ijodiy) imtihon maxsus jihozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi. Abituriyentlar maxsus tekshiruvdan o'tkazilib, belgilangan tartib qoidalarga amal qilgan holda bino va auditoriyalarga kiritiladi.

III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi



Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonlarning natijalariga ko'ra, natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida institut qabul komissiyasining Apellyatsiya kengashiga murojaat qilishlari mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan taqdirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to'g'risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi
va baholash mezoniga
I-ilova

**“Chizmatasvir” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**

Vazifa: Gipsdan yasalgan antik haykali natijurmoi




Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va baholash mezoniga
2-ilova

KOMPOZITSIYA FANI

Vazifa: Mutaxassislikdan kelib chiqib berilgan vazifa yoki mavzu bo'yicha maxsus kompozitsiya yaratish.

Namunalar:

60210400-Dizayn: kompyuter grafikasi va badiiy foto ta'lim yo'nalishi bo'yicha



60210400-Dizayn: reklama va amaliy grafika ta'lim yo'nalishi bo'yicha



60210400-Dizayn: interyer dizayn ta'lim yo'nalishi bo'yicha



60210400-Dizayn: libos va gazlamalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha

